



Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-noyabr

Raqamlar:

- 2017 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 103430,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'ati 137,0 foizni tashkil qildi.
- Jami bozor xizmatlarida transport xizmatlarning ulushi – 29,2 foiz.

Xizmatlar ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda.

2017 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 103430,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 8,7 foizga oshdi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (29,2 foiz), savdo xizmatlari (27,7 foiz), moliyaviy xizmatlar (13,0 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,9 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.


2017 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar sohasi

2016-2020 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi doirasida qabul qilingan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlariga erishish imkonini berdi. Jumladan, moliyaviy xizmatlar bo'yicha o'sish sur'ati - 137,0 foizni; ta'lim xizmatlari bo'yicha - 121,5 foizni; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha - 116,8 foizni; arxitektura sohasidagi xizmatlar, texnik tadqiqotlar, texnik sinov va tahlil qilish xizmatlari bo'yicha - 112,5 foizni tashkil etdi.


2017 yil yanvar-noyabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari o'sish sur'ati, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari o'sish sur'atining oshishiga telekommunikatsion xizmatlar (87,4%) ta'sir ko'rsatdi (mobil aloqa xizmatlari, internet tarmoqlari, IP-telefon va boshqalar.)

**Hududlar kesimida Toshkent shahri
yuqori o'rinlarni egalladi.
2017 yil yanvar-noyabr oylarida
Toshkent shahrining ulishi 33,4 foizni,
aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar
hajmi -13743,2 ming s'omni tashkil qildi.**



2017 yil yanvar-noyabrda hududlar bo'yicha (Toshkent shahrisiz) aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm



Xizmatlar sohasi

2017 yil 11 oy yakuni bo' yicha yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahrida 114,7%, Navoiy viloyatida 107,2% va Qoraqalpog'iston Respublikasida 107,1% ga erishildi.

2017 yil yanvar-noyabrda bozor xizmatlari o'sish sur'atining hududlar bo'yicha taqqoslanishi, % da



Xududlar kesimida eng katta ulush

Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Mas'ul: A.Umarov
(71) 230-80-61